

**SOBIR RAHIMOV**

Toshkent shahar Uchtepa tumani 287-maktabning  
Tarix fani o'qituvchisi

**Yangiboyeva O'g'loy Uralovna**

Toshkent shahar Uchtepa tumani 287-maktabning  
8-"A" sinf o'quvchisi

**Amirxonzoda Saidaxon**

Toshkent shahar TDYU 2-kurs talabasi

**Iskandarova Kamolatxon**

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada O'zbekistonning birinchi generali Sobir Rahimov hayoti va hamda u ko'rsatgan mardonavor kurash ya'ni ikkinchi jahon urishiga qo'shgan xissasi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Sobir Rahimov, general, halok, harbiy, o'zbek, unvon, jangchilar Qahramon va hakazolar.*

O'zbekistonliklar- Yevropa xaloskorlari. O'zbekistonlik jangchilar Yevropa xalqlarini ozod etishda faol qatnashdilar. Birinchi, o'zbek generali, 57-gvardiyachi diviziyaning qo'mondoni Sobir Rahimov Polshada shonli xotira qoldirdi. Uning diviziyasi Kavkazdan Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan masofani qattiq janglar bilan bosib o'tdi. Ko'rsatgan harbiy mahorati uchun ko'p martalab hukumat ordenlari va medallar bilan taqdirlandi. 1943-yil martida unga general-mayor unvoni berildi.

1943-yil mayidan 1944-yil apreligacha muddatda Sobir Rahimov Moskvadagi Oliy harbiy akademiyada ta'lim oldi. U akademiyaning tamomlab, avval Belorussiyani ozod etishda, so'ngrabPolshaning Grudzyandz, Gnev, Starogard, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atni namoyish etadi.

1945-yil 26-martda Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda general Sobir Rahimov halok bo'ldi. Sobir Rahimovga o'limidan so'ng Qahramon unvoni berildi. Polsha xalqi o'zbek xalqi kabi general Sobir Rahimov nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga Sobir Rahimov nomi berilgan.

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan qarshilik ko'rsatish harakatida ham faol qatnashdilar. Ular dushmaning maxsus lagerlaridan qochib Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiyadagi Qarshilik harakatiga qo'shilib jang qildilar. Samarqandlik G.G. Bulatov otryafi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatad, dushmanning harbiy qismlari va jangovar texnikasi ortilgan eshelonlarni ag'dardi. 1944-yil o'rtalarida Slovakiyada fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'alonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri V.F. Melnikov, R.Allamov, A.Narzullayev, R.hamroyevlar ishtirok etadi.





Sobir Umar o'g'li Rahimov (25-yanvar 1902-yil — 26-mart 1945-yil) — harbiy arbob, general-mayor (1943), millati — o'zbek. 1925-yilda Bokuda Birlashgan harbiy maktabni va 1930-yilda komandirlar sostavi malakasini oshirish kursini tugatgan. 1932—38-yillarda va 1940-yildan armiyada. 1941-yildan frontda. Bosh shtab harbiy akademiyasining jadallashtirilgan kursini tugatgan (1943). Ikkinchi jahon urushida Janubiy frontdagi motorlashtirilgan polk komandiri, Zakavkazye frontida o'qchi diviziya komandiri. 1-Belorussiya fronti qo'shinlari tarkibida Baranovich, Slonim, Belostok, Graudens va boshqa shaharlarni, Belorussiya va Polshani ozod qilishda qatnashgan. Rahimov komandirligidagi 37gvardiyachi o'qchi diviziya (2-Belorussiya frontining 65-armiyasi) 1945-yil Sharkni Pomeraniya operatsiyasida o'rnak ko'rsatgan: diviziya o'sha yilning mart oyi oxirida Gdinya va Dansig sh.larida dushmanning yirik guruhlarini tormor etishda qatnashgan. Diviziya 1-eshelonda hujum qilib, armiyada 1-bo'lib Boltiq dengizi sohiliga chiqqan va Dansig ko'chalarida jangni boshlab yuborgan. Rahimov og'ir yarador bo'lib halok bo'lgan. 1965-yil 6-martda Qahramon unvoni berilgan. Urushdan keyin Rahimov xoki Toshkentdagi qabristonga qo'yilgan.

Toshkentda tuman, metro st-yasi, bir necha maktabga Rahimov nomi berilgan. Rahimov xaqida „General Rahimov“ badiiy filmi yaratilgan (1967). Toshkent shahrining Sobir Rahimov tumanida haykal o'rnatilgan (1981)

Sobir Rahimov 1941 yil iyun oyida Ikkinchi jahon urushiga mayor unvonida, motoo'qchilar polkining komandiri o'rinbosari lavozimida kirishgan.

U g'arbiy frontda Belarus va Smolensk viloyatidagi mudofaa janglarida qatnashgan. 1941 yil iyul oyida yaralanib, gospitalga yuboriladi.

Sobir Rahimov davolangach, yana urush hayotiga qaytariladi, lekin 1942 yil yanvarda ikkinchi marta yaralanadi. So'ng yana tuzalib urushga qaytadi. 1943 yil boshida u boshchilik qilgan diviziya Shimoliy Kavkazdagi hujum operatsiyalarida jonbozlik ko'rsatadi.

Polkovnik Sobir Rahimov 1943 yil 19 martda general-mayor harbiy unvonini olgan.

Toshkent shahrida joylashgan «Shon-sharaf muzeyi» tarixchi olimlarining ma'lumot berishicha, Sobir Rahimov general bo'lishiga qaramay, hamisha oddiy askarlar bilan suhbatdosh va hamfikir bo'lgan.

Tarixchilarning aytishicha, Rahimov har qanday jangda oldingi saflarda bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Balki shuning uchundir, Stalin uni «temir general» deya sifatlagan edi.

1943 yil 8 aprelda general-mayor Rahimov divizion boshqaruvidan ozod qilinib, Moskvaga, Voroshilov nomidagi bosh shtab harbiy akademiyasiga o'qishga yuboriladi.

Akademiyani tamomlagach, general frontga qaytadi va 1944 yil noyabrda o'qchilar diviziyasiga komandir etib tayinlanadi.

Polshani qutqarish operatsiyasi





Sobir Rahimov 65-armiya tarkibida Sharqiy Prussiya xujum operatsiyasida jang olib borgan. U 9 minglik dushman garnizoni himoya qilayotgan mustahkam Graudenz shahrini (hozirgi Grudzyondz, Polsha) shturm qilishda jonbozlik ko'rsatgan.

General I.Fedyuninskiy komandirligidagi diviziya 1945 yil 16 fevralda kuchli zarba bilan shahar chetidagi dushman istehkomlariga yorib kirib, bir necha aholi yashash punktlarini ozod qiladi va shaharga kirib boradi.

Rahimov bo'linmasining qat'iy harakatlari, garnizonning asosiy kuchlarini unga qaratishga majbur qiladi, natijada 22 fevralga o'tar kechasi boshqa bo'linmalar ham turli yo'nalishlardan hujum qilib, shahar ozod qilinadi.

Sobir Rahimovni Polshada iliqlik bilan eslashadi. U Polshaning Grudzyondz, Gnev, Starograd, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atni namoyish etgan.

1945 yil 26 martda Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda hujumga o'tgan dushman kemalari artilleriyasidan otilgan katta kalibrli to'plardan diviziyaning kuzatuv punkti yo'q qilinadi. Kuzatuv postida bo'lgan general-mayor Sobir Rahimovning boshi snaryad parchasidan og'ir yaralanadi va sakkiz soatdan keyin hushiga kelmasdan kasalxonada vafot etadi.

Sobir Rahimovga o'limidan so'ng qahramon unvoni berildi. Polsha xalqi esa o'zbeklar kabi general Sobir Rahimov nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga Sobir Rahimov nomi berilgan.

TOSHKENT, 8 may — Sputnik, Anton Kurilkin. Sputnik O'zbekiston general Sobir Rahimovning hayoti va jangovar yo'lini yodga oladi.


Sovet ittifoqining bo'lajak qahramonining otasi qozoq, onasi o'zbek edi. Uning tug'ilgan joyi haqida ikki xil ma'lumot aytiladi: birida u Toshkentda tug'ilgan deyilsa, ikkinchisida Janubiy Qozog'iston viloyatida tug'ilgan deyiladi. Tug'ilgan sanasi haqida ham ma'lumotlar turlicha: bir manbaga ko'ra Rahimov 1902 yil 1 yanvarda tug'ilgan, yana bir manbada esa uning 25 yanvarda tug'ilganligi aytiladi.

Bolakay sakkiz yoshligida otasidan ayriladi va onasi bilan Toshkent viloyatida yashovchi tog'asi Rahimjonnikiga ko'chib kelishadi.

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i"da Urush davridagi janggohlarni eslatadigan baland tepalik ustida afsonaviy general Sobir Rahimov kabi harbiy qo'mondonlarimiz, o'zbekistonlik barcha botir jangchilarning so'nmas xotirasiga atab "Mangu jasorat" deb nomlangan ulug'vor monument barpo etildi.

Mazkur kompozitsiya va mahobatli stella loyihasi muallifi Jasvant Annazarov biz bilan suhbatda shunday dedi:

- O'tgan 2019 yilda mazkur monument bo'yicha tanlov o'tkazildi. To'g'risi, ushbu tanlovda mening loyiham g'olib bo'lishini kutmagan edim. General Sobir Rahimov shaxsi har bir o'zbek yigitini g'urur va faxrga chulg'aydi. Mana bugun o'sha mashhur qahramonimiz yonida 14 nafar o'zbek qahramoni saf tortib turibdi. Ularning har birini nomma-nom aytib o'tishni joiz deb bilaman: General mayor(Sovet Ittifoqi Qahramoni)





Ahmadjon Qurbonov, snayper ("Qizil yulduz" ordeni sohibasi) Zebo G'anieva, starshina (Sovet ittifoqi Qahramoni) Bois ergashev, mayor (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Abdusattor eshonqulov, polkovnik (Sovet ittifoqi Qahramoni) Botir Boboev, harbiy shifokor (Birinchi darajali Ulug' Vatan urushi ordeni sohibasi) Muqaddam Ashrapova, serjant (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Ahmadjon SHukurov, katta leytenant (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Amirali Saidbekov, leytenant (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Val'demar SHalandin, 5-otryad razvedkachilar bo'limi komandiri (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Mamadali Topvoldiev, serjant (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Qudrat Suyunov, starshina (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Samig' Abdullaev, kichik leytenant (Sovet Ittifoqi Qahramoni) Inoyat Navro'zboev, oddiy askar (Sovet ittifoqi Qahramoni) SHadi SHamov. Aytish mumkinki, "G'alaba bog'i" Ikkinchi jahon urushidagi voqealar va holatlarni to'raligicha ko'rsatib bera oladigan majmua sifatida yurtdoshlarimiz tomonidan e'tirof etilmoqda.


Ikkinchi jahon urushida o'zbek xalqi Sovet Ittifoqining g'alabasiga beqiyos hissa qo'shdi. Urushning eng qaynoq nuqtalarida o'zbek askarlari o'zlarining botir, mard, yovdan qo'rqmaslik xislatlarini namoyon qilib, jasorat ko'rsatishdi. Misol uchun 1941-yilning kuz-qish oylaridagi Moskva ostonasida hayot-mamot janglari bo'lib, unda Qo'chqor Turdiyev, Is'hoqov, Abubekov, Yusupov, Madaminov, Abdulla Tog'ayev kabi millionlab o'zbekistonliklar qatnashdi.

Ikkinchi jahon urushida birinchi o'zbek generali, 57-gvardiyachi diviziyasining qo'mondoni Sobir Rahimov Yevropa xalqlarini fashistlardan ozod etishda faol qatnashdi. Ko'rsatgan harbiy jasorati uchun u to'rt marta "Qizil Bayroq", "Suvorov", "Qizil Yulduz" ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlandi.

Bugungi tarix adabiyotlarida Sobir Rahimovning ko'rsatgan jasoratlari bot-bot yoritiladi. Lekin mustabid Sovet tuzumining Sobir Rahimovga nisbatan qilgan adolatsizliklari esa tilga olinmaydi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, 1938-yil 28-mart kuni Sobir Rahimovga O'zSSR JKning 57-(chet el josusi) va 67-(aksilinqilobiy tashkilot a'zosi) moddalari qo'llab qaror chiqariladi. 1938-yil 1-apreldan tergovchilar undan aksilinqilobiy tashkilot a'zosi ekanligini tan olishini talab qiladi. U tahqir va qiynoqlarga sabot bilan bardosh beradi. 1938-yil 7-8-aprel kunlari tergovchi Vasilyev avval musht bilan so'ng 1,20 metrlik metall kaltak olib tinimsiz savalaydi. Shundan so'ng 7 kun davomida tik oyoqda qo'yib, muttasil jismoniy qiynoqlar qo'llaydilar. 15-aprel kuni aqldan ozish darajasiga kelgan Sobir Rahimov qo'lga tutilgan qog'ozlarga imzo chekadi va shu kunigina uni kameraga sudrab olib kelishadi.

Sobir Rahimovni 1938-yil 19-may kuni yana tergovga chaqiradilar. Bu gal undan diviziyada mavjud aksilinqilobiy tashkilot a'zosisan va qolgan a'zolarining nomlarini ham keltirasan deb talab qilishadi. U 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasida hech qanday aksilinqilobiy tashkilot yo'q deb javob beradi. Shundan so'ng Vasilyev uni tahqirli so'zlar bilan haqoratlab, "Mirsharopov marshi"ni kuylagansan, "ruslar ustimizdan to'la hukmronlik bo'lmoqchi, bu dayuslar bizni komandir sifatida tan olmayapti," degansan,





endi hammasiga javob berasan deydi. U birorta ayblovni tan olmasligini va biror joyga imzo chekmasligini ma'lum qiladi. 22-may kundan yana 4 kun tik oyoqda qo'yib qiynoqqa soladilar. Zulm va ochlikdan holsizlangan Sobir Rahimov 1938-yil 25-may kuni hushidan ketib yiqiladi.

1938-yil 12-sentyabr kuni yana so'roqqa chiqariladi. Bu gal uning oldiga guvoh Muhammad Ziyoyev degan kimsani keltirishadi. Yuzlashtirishda Muhammad Ziyoyev o'zining 1932-yilning may oyida Samarqandda aksilinqilobiy tashkilot yig'inida uni ko'rganligini aytadi. Sobir Rahimov tinglaydi va o'zining aynan o'sha vaqtda Samarqandda emas Toshkentda bo'lganini isbotlab beradi. Bu gal ham ishi o'xshamagan tergovchilar S.Rahimovni 14-19 -sentyabr kunlari yana tik holatda qo'yib mislsiz qiynoqqa soladilar. Sobir Rahimov o'ziga qo'yilgan barcha bo'htonlarini qat'iy rad etib, birorta ayblovni tan olmasligini ma'lum qiladi.

#### Ozodlik

Sobir Rahimovning 1939-yil 30-aprel kuni SSSR Davlat xavfsizligi bosh komissari Lavrentiy Beriyaga yozgan arizasi baxtli tasodifmi uning qo'lga yetib boradi. Mazkur ariza asosida 1939-yil 17-may kuni Sobir Rahimov ishi yuzasidan qayta tekshirishlar boshlanadi. 1939-yil 25-iyun kuni so'roqda Sobir Rahimov o'ziga nisbatan amalga oshirilgan bo'hton, noqonuniy qiynoq va tahqirlarni so'zlaydi. 1939-yil 29-iyun kuni qayta tergov yakunlanib, unga qo'yilgan O'zSSR JKning 57-2, 63-, 65-, 67-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlar dalillar bilan isbotini topmagan deb oqlashga qaror chiqariladi. 1939-yil 2-iyul kuni Sobir Rahimovdan qamoqda qo'llanilgan qiynoqlar va so'roqlarni mutlaq sir tutishga so'z beruvchi yozma olinadi va turmadan chiqishi uchun talon beriladi.

#### Urush

1939-yil sentabr oyida Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sovet Ittifoqi o'z qurolli kuchlarini kuchaytirish maqsadida sobiq harbiylarni armiya safiga chaqirdi. Sobir Rahimov o'ziga nisbatan qilingan xaqsizliklarni bir chetga surib, frontga yo'l oldi. U uzoq vaqt sarson sargardonliklardan so'ng 1940-yil oxiriga kelib qurolli kuchlar safiga qayta tiklanishga muvaffaq bo'ldi va G'arbiy maxsus harbiy okrugga jo'natildi.

1941-yilning iyun oyida Germaniya Sovet Ittifoqiga qarshi urush boshladi. Sobir Rahimov mayor unvonida motoo'qchilar polkining komandiri o'rinbosari lavozimida faoliyat boshladi. U g'arbiy frontda Belarus va Smolensk viloyatidagi mudofaa janglarida qatnashgan. 1941-yilning iyul oyida yaralanib, gospitalga yuboriladi.

Sobir Rahimov davolangach, yana frontga qaytadi. Rahimov 1941-yilning noyabr oyi so'ngida shiddatli janglarda o'z polki bilan Rostov shahrini birinchi bo'lib ishg'ol etadi va bu xizmati uchun u "Qizil bayroq" ordeni bilan taqdirlanadi. 1942-yilning yanvar oyida yana jarohatlanib, may oyida tuzaladi.

1942-yilning yozida Vermaxt Qizil armiyani Volgaga taqab qo'ygan paytda Sobir Rahimov Shimoliy Kavkaz mudofaasiga mas'ul bo'ldi. U sentyabr oyiga kelib diviziya qo'mondonligini qo'lga olib, dushmani Qora dengizga chiqishlariga asosiy to'siq yaratadi. Dushman qancha kuch tashlamasin u chekinishni xayoliga ham keltirmadi.





1943-yil boshida polkovnik Sobir Rahimov diviziyasi Shimoliy Kavkazdagi hujum operatsiyalarida mislsiz janglarda haqiqiy qahramonlik ko'rsatdi. U 1943-yil 19-mart kuni general mayor harbiy unvonini oldi. Rahimov general bo'lishiga qaramay qadim turkiy qo'mondonlar an'anasiga amal qilib, har qanday jangda oldingi saflarda turdi. Hamisha oddiy askarlar bilan hamsuhbat va hamfikir bo'ldi.

1943-yil 8-aprel kunida general-mayor Rahimov diviziya boshqaruvidan olinib, Moskvaga bosh shtab harbiy akademiyasiga o'qishga yuborildi. Bosh shtab harbiy akademiyasining jadallashtirilgan kursini tugatgach, frontga qaytadi va 1943- yilning noyabrda o'qchilar diviziyasiga komandir etib tayinlanadi. Sobir Rahimov 65-armiya tarkibida Sharqiy Prussiyaga hujum operatsiyasida ham jonbozlik ko'rsatadi. U Janubiy frontdagi motorlashtirilgan polk komandiri, Zakavkazchye frontida o'qchi diviziya komandiri sifatida eng og'ir nuqtalardagi janglarda shaxsan o'zi boshchilik qildi.

#### Vafot

General Sobir Rahimov 1-Belorussiya fronti qo'shinlari tarkibida Baranovichi, Slonim, Belostok, Graudens va boshqa shaharlarni, Belorussiya va Polshani ozod qilishda qatnashdi. Gdansk ko'chalariga ham birinchi bo'lib kirib keldi. 1945-yil 26-mart kuni Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda hujumga o'tgan dushman kemalari artilleriyasidan otilgan katta kalibrli to'plardan diviziyaning kuzatuv punkti yo'q qilindi. Kuzatuv postida bo'lgan general-mayor S.Rahimovning boshi snaryad parchasidan og'ir yaralandi va sakkiz soatdan keyin hushiga kelmasdan kasalxonada vafot etdi.

Sobir Rahimovni Polshada iliqlik bilan eslashadi. U Polshaning Grudzyondz, Gnev, Starograd, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atni namoyish etgan. Eng qizig'i shunday jasorat ko'rsatgan o'g'longa Qahramon unvoni berilmadi. Faqatgina Stalin vafotidan so'ng, aniqrog'i 1964-yil 6-mart kuni Sobir Rahimovga Qahramon unvoni berildi.

Shon-sharaf" muzeyi tarixchilarining ma'lumot berishicha, 60-yillar o'rtalarida Sobir Rahimovning rafiqasiga Gdansk shahrining ramziy kaliti topshiriladi. Buning bilan polyak xalqi dushmanlardan ozod bo'lishda jonbozlik ko'rsatgan shaxsni unutmashligini bildiradi.

